



Tilabov Nasrulla

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya"

kafedrası dotsenti, i.f.n.

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada moliyaviy siyosat, byudjet daromadlari va soliq sohalari barcha darajadagi byudjetlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning dolzarb muammolari yoritilgan bo'lib, unda respublika va mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha hukumatimiz tomonidan so'nggi yillarda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy asoslariga to'xtalib o'tilgan va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar berilgan.

KALIT SO'ZLAR:

"Moliya va soliqlar", innovatsion usul, biznes, byudjet davlat, viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari, to'lovlar, pensiyalar va, imtiyozlar, soliq, sohalari.

KIRISH

Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi.

Sh. M. Mirziyoev

Moliya – murakkab iqtisod sifatida iqtisodiyot nazariyasi, makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, pul muomalasi va kredit va bank tizimini o'zida qamrab oluvchi bilimlar sohasidir. Shu boisdan ham jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida, bozor munosabatlarining ajralmas qismi sifatida ahamiyatga molikdir. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy bosqichi iqtisodiy o'sishning jadal suratlariga erishishni ta'minlash, moliyaviy risklarni kamaytirish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga, soliqlarning undiriluvchanligini yanada oshirish va samarali soliqqa tortish konsepsiyasini amaliyotga keng tatbiq qaratilganligidir. Ushbu masalalarning hal etilishi "Moliya va



soliqlar” innovatsion usullarni rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Ayniqsa moliya va soliqlar sohasida innovatsiyalar ta’lim texnologiyalaridan keng foydalanish mamlakatimizda zamonaviy iqtisodiy ta’limni rivojlantirishning tub mohiyatiga aylangan.

Mahalliy byudjetlar hududiy davlat boshqaruv organlari moliyaviy tizimining birlamchi tarkibiy qismi sanaladi. Shu bilan bir qatorda, ular mahalliy organlarni o‘z oldilarida turgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy funktsiyalarni amalga oshirishlari uchun moliyaviy resurslar bilan ta’minlab turadi. Hududiy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy moliyaviy negizini mahalliy byudjetlar tashkil etadi. Zimmalaridagi vazifalar muvaffaqiyatli bajarilishi ko‘p jihatdan ularning moliyaviy mablag‘larga egaligiga bog‘liq. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi mahalliy byudjetlar orqali moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlab boriladi. Demak, mahalliy byudjet daromadlari hamda xarajatlarini muvofiqlashtirish respublika va uning hududlari rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy byudjet davlat byudjeti iqtisodiy kategoriyasining tarkibiy qismi sirasiga kiradi. Iqtisodiy ma’noda u hududiy boshqaruv organlari o‘z vazifa va funktsiyalarini ado etishlarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan davlatning markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondidir. Huquqiy nuqtai nazardan esa, mahalliy byudjet mahalliy boshqaruv organlarining vazifa va funktsiyalarini moliyaviy ta’minlashga mo‘ljallangan pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etish va sarflashning qonunan belgilangan shaklidir. Byudjet huquqiy akt maqomiga ega bo‘lib, vakolatli hokimiyat organi tomonidan qabul qilinadi va qonuniy kuchga ega bo‘ladi.

Biz misol qilib makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozlarida 2021 yil uchun byudjetning asosi bosqichma-bosqich takomillashtirildi pandemiya holatlari, iqtisodiy faollik va mamlakatdagi yalpi talab 2021-yil oxirigacha inqirozdan oldingi darajaga yaqinlashadi [3, 4-bet]. Byudjetni rejalashtirishda muhim hujjat fiskal hisoblanadi strategiya. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan qabul qilingan fiskal 2021-2023 yillarga mo‘ljallangan strategiya quyidagi shartlarni belgilab berdi 2021-yilda Davlat budjeti ijrosini amalga oshirish va 2022-2023 yillar uchun byudjet ko‘rsatkichlari. 2021-2023 yillarga mo‘ljallangan fiskal siyosat quyidagilarga qaratilgan:



- byudjetga tushumlarning to'liqligini ta'minlash, o'z vaqtida va to'liq ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiyalar va imtiyozlar, shuningdek kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlash;
- biznesni yaxshilashga qaratilgan soliq islohotini davom ettirish faoliyat, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash va takomillashtirish investitsion jozibadorlik;
- xarajatlar samaradorligi va samaradorligini oshirish davlat budjeti;
- davlat qarzining barqarorligini ta'minlash va boshqarish fiskal xatarlar;
- birlashtirish orqali konsolidatsiyalangan byudjetning to'liqligini ta'minlash vazirliklar va idoralarning barcha byudjetdan tashqari hisobvaraqlari;
- byudjet barqarorligini ta'minlash, shu jumladan hajmini kamaytirish o'rta muddatli yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2% gacha bo'lgan konsolidatsiyalangan byudjet taqchilligi istiqboli.

Bizning fikrimizcha, mahalliy byudjet mamlakat milliy xo'jaligini moliyaviy jihatdan tartibga solish, byudjet daromadlarini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirish jarayonlarini samarali tashkil etishda dolzarb vazifani bajaradi. Qonunchiligimizda ta'kidlanishicha, mahalliy byudjet davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Mahalliy byudjetlar hududiy davlat boshqaruv organlari moliyaviy tizimining birlamchi tarkibiy qismi sanaladi. Shu bilan bir qatorda, ular mahalliy organlarni o'z oldilarida turgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy funktsiyalarni amalga oshirishlari uchun moliyaviy resurslar bilan ta'minlab turadi. Hududiy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy moliyaviy negizini mahalliy byudjetlar tashkil etadi. Zimmalaridagi vazifalar muvaffaqiyatli bajarilishi ko'p jihatdan ularning moliyaviy mablag'larga egaligiga bog'liq. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi mahalliy byudjetlar orqali moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlab boriladi.



Soliqlardan kompleks foydalanish iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini modernizatsiya qilishga, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirishga, xo'jaliklar va aholini tovar sotib olish qobiliyatini boshqarib turishga va pulning qadrsizlanish jarayonini (inflyatsiyasini) jilovlab turishga imkon beradi. Pulning qadrsizlanishiga qarshi choralar ko'rish kam sarflab, topilgan daromadaarga soliq progressiyasini oshirish bilan ham amalga oshiriladi.

Soliqlar davlat faoliyatlarining moliyaviy manbai bo'lganligi tufayli soliq siyosatini ishlab chiqishning tashkilotchisi va ijodkori ham davlatdir. Buning uchun davlat o'z qo'lidagi butun kuchini, idoralarni jalb qilib, uni ishlab chiqadi.

Davlat soliq siyosatini ishlab chiqayotganda mavjud soliqlarni yoki yangi kiritilishi mo'ljallangan soliqlarning mohiyati, ahamiyati, kelib chiqishi va rivojlanish tarixini chuqur o'rganishi lozim. Ayniqsa, yangi soliqlar chiqarilayotganda ular ilmiy asoslangan bo'lishi, yirik amaliyotchi mutaxassislar va jamoatchilik o'rtasida erkin bahslashuv asosida biror qarorga kelishi zarur. Bu yerda hech qachon bir sohaning mutaxassislari fikri bilangina chegaralanib qolmaslik kerak, chunki soha mutaxassislari o'z manfaatlarini ko'proq ko'zlab, umumdavlat manfaatlarini ular ko'ra olmasliklari yoki bila olmasliklari mumkin.

Shunday ekan, davlat soliq siyosatini tayyorlovchi va uni to'liq hayotga tatbiq qilishning tashkilotchilik va boshqaruvchilik rolini bajaradi. Davlatning soliq siyosatini faol yuritish bozor iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli o'tish va uning munosabatlarini har tomnlama rivojlantirishning muhim omilidir.



Google
Scholar



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қобулов Х.А. Худуд солиқ салоҳиятини баҳолашнинг фундаментал масалалари // “Science and Education” Scientific Journal. December 2021 / Volume 2 Issue 12, 914-926-б.

2. Khotamjon Kobulov, Sherzod Jalilov, Sherali Sultanov, Nodira Soatova. Modeling the processes of forming a strategy for the revenue potential of local budgets // Journal of Advanced Research in Dynamic and Control Systems. VOLUME 12, ISSUE 6. 2020. DOI: 10.5373 / JARDCS / V12I6 / S20201161. Pages: 1210-1216

3. Tokhir Malikov, Sherzod Jalilov, Khotamjon Kobulov, Sherali Sultonov. Methodological approaches to assessing and forecasting the tax potential of the region // Turkish Journal of Computer and Mathematics Education Vol.12 No.11 (2021), May 2021, p. 7056-7060

4. Кобулов Х.А. Межбюджетное выравнивание в формировании доходного потенциала региона // “Science and Education” Scientific Journal. May 2021 / Volume 2 Issue 5, p. 1004-1010